



TUPROQNI HIMOYALOVCHI DEHQONCHILIK-BARQAROR EKOLOGIYA GAROVI.

Abdiyev Abduqodir Ravshanbek o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8361866>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-September 2023 yil

Ma'qullandi: 15-September 2023 yil

Nashr qilindi: 20-September 2023 yil

KEY WORDS

Bugun "iqlim o'zgarishi", "global isish", "ekologik tanglik", "issiqxona effekti" singari tushunchalar tilimizga ancha o'rnashib qoldi.

ABSTRACT

Aslida, iqlim o'zgarishlari bir ikki yilda yuzaga keladigan hodisa emas. Zotan, sayyoramiz tarixida uning chegarasidagi harorat muntazam ravishda o'zgarib kelgan. Bu jarayonlar tuproq unumdorligini o'zgarishiga, ko'plab jonivorlar yoki o'simliklarning yo'qolib ketishi, o'zgacha hayot tarzi, yangicha tiriklik belgilari paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Bugun "iqlim o'zgarishi", "global isish", "ekologik tanglik", "issiqxona effekti" singari tushunchalar tilimizga ancha o'rnashib qoldi. Aslida, iqlim o'zgarishlari bir ikki yilda yuzaga keladigan hodisa emas. Zotan, sayyoramiz tarixida uning chegarasidagi harorat muntazam ravishda o'zgarib kelgan. Bu jarayonlar tuproq unumdorligini o'zgarishiga, ko'plab jonivorlar yoki o'simliklarning yo'qolib ketishi, o'zgacha hayot tarzi, yangicha tiriklik belgilari paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Qishloq xo'jaligi iqlim o'zgarishi sababchilaridan biri etib ko'rsatiladi. Tez-tez kuzatilayotgan tabiiy ofatlardan eng ko'p aziyat chekayotgan soha ham shu. Hozirgi vaqtlarda ayrim fermer xo'jaliklari rahbarlari va fuqoralar Boshqoli don yig'ishtirib olingandan so'ng, g'alladan bo'shagan maydonlardagi somon qoldiqlarini yoqib yuborishmoqda. Buning oqibatida 1gektar maydondagi boshqoli don ekinlari poyasi somon va uning qoldiqlarini yoqib yuborilishi oqibatida atmosferaga 500 gramm azot oksidi, 379 gramm uglevodorod, 3 kg kul, 20 kg is gazi kabi zararli moddalar tarqaladi, bundan tashqari tuproqning unumdorligi yo'qatiladi, tuproqdagi mikro va makroorganizmlarga sa'lbiy tasir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning **88-modda 2-qismda** Dala va aholi punktlarida ang'iz, hazon va shox shabbalarni yoki o'simliklarning boshqa qoldiqlarini yoqib yuborish, atmosfera havosini zararli moddalar bilan ifloslantirishga olib kelsa –fuqoralarga bazaviy hisoblash miqdorining **uch baravaridan besh baravarigacha**, mansabdor shaxslarga esa **esh baravaridan o'n baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shularni inobatga olib fermer xo'jaliklarimiz mahsulot yetishtirishda an'anaviy usullardan asta sekinlik bilan voz kechib, "Aqlli qishloq xo'jaligi"ga tobora murojat qilishmoqda. G'alladan bo'shagan maydonlardagi somon qoldiqlarini haydamaqdan takroriy ekinlarni ekishmoqdalar. Bu Tuproqni

himoyalovchi dehqonchilik - yerdan foydalanishning sizni biz yashab turgan zamonda kashf qilingan istiqbolli ko'rinishlaridan biridir. Uni alohida texnologiya emas, yondashuv deb atagan ma'qul. U turli-tuman va o'zgarib borayotgan agrotexnika usullaridan iborat va pirovard maqsadi tuproqni bezovta qilishni, undan nam qochishini va ozuqa moddalar yo'qolishini kamaytirishni ta'minlaydi. Bu tuproq tabiiy ekotizimda bajaradigan bir qator ekologiya funksiyalarini saqlab qolishda yordam beradi. Tuproqni himoyalovchi dehqonchilikning bir qancha isbotlangan ustun jihatlari bor hamda u bugungi kunda Shimoliy va Janubiy Amerika, Hindiston va boshqa mamlakatlarning ko'plab vodiylarida millionlab gektar yerlarda qo'llanmoqda. Quyidagilar hamma joyda tuproqni himoyalovchi dehqonchilik unsurlari sifatida tan olingan:

- Yerga minimal ishlov berish yoki umuman yerni haydamasdan ekish;
- Tuproq yuzasini doimiy o'simlik qoldig'i bilan qoplash;
- Munosib almashlab ekish tizimlarini joriy qilish.

Ushbu agrotexnologiyaning mohiyati, yerga hech qanday ishlov bermasdan yoki yerni haydamasdan to'g'ridan to'g'ri takroriy ekinlarni ekishga asoslangan. Buning uchun maxsus jixozlangan ekish agregati tuproq yuzasidagi somonni kesib tuproqqa urug'ini qadaydi. Ekish bilan bir vaqtda mineral o'g'itlarni ham berib o'tadi.

Kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlarda takroriy ekinlarni yerni haydamasdan ekishning bir nechta afzallik tomonlari bor:

- ekishgacha bo'lgan vaqt 10-15 kunga qisqaradi;
- yerga ishlov berish xarajatlari 50-60 foizga tejaladi;
- mineral o'g'it sarfini 45-50 foiz tejalishiga imkon yaratadi;
- tuproq yuzasidagi o'simlik qoldiqlari namlikni uzoq vaqt saqlab, sug'orish oralig'ini 5-7 kunga uzaytiradi;
- tuproq yuzasidagi o'simlik qoldiqlari begona o'tlarni kamaytiradi;
- ekinlar hosildorligi an'anaviy-haydab ekishga nisbatan 3-5 s/ga yuqori bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yangi agrotexnologiyalarni birdaniga katta maydonlarda joriy qilish fermerlardan juda katta tavakkalchilikni talab qiladi. Buning oldini olish maqsadida, resurstejamkor qishloq xo'jaligini fermerlar dastlab kichik maydonlarda sinab ko'rishi tavsiya qilinadi. Chunki, fermer ushbu noan'anaviy usulda ekin yetishtirish bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, tegishli tajribalarni orttirishi, harajat va daromadlarni atroflicha taxlil qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 4rth World Congress on Conservation Agriculture, New Delhi, 2009. pp-429;
2. ZEF/UNESCO loyixasining Xorazm viloyatida yer va suv resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha ilmiy ishlanmasi. ZUR №18. 2011;
3. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. 2019y O'RQ 586 sonli qarori